

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

***60110400 – Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishining malaka talablari***

Chirchiq - 2021

**ISHLAB CHIQILGAN, TACDIQLANGAN VA AMALGA
KIRITILGAN**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti kengashining 202 1 yil « 23.08 » dagi 1 -sonli yig'ilishida ma'qullangan. Institut rektorining 202 1 yil « 26.08 » dagi 21-213/1 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Mazkur malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti, Asosiy qoidalar, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xududida rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	9
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	9
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	10
2.3. Kasbiy kvalifikatsiyalar.....	12

60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi, kechki, masofaviy ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil. Sirtqi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 5 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalishi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilar tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchivakolatli Davlat organlari;

ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abiturientlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60110400 - *Maxsus pedagogika (Logopediya)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi-nutqida muammolari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat va nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida logoped-o'qituvchi; aqliy va ruhiy rivojlanishida, ko'rishida, tayanch harakatida muammolari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida, "Muruvvat uyi", "Mehribonlik uyi"da logoped-o'qituvchi, tarbiyachi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha turida (metodist; logoped; tarbiyachi); umumta'lim maktablari (inklyuziv sinflarida) boshlang'ich sinf o'qituvchisi (musiq, jismoniy tarbiya, tasviriy san'atdan tashqari), o'qituvchi-logoped; oilada yakka tartib ta'lim o'qituvchisi; sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalarda logoped, reabilitolog, nodavlat tashkilotlarda (defektologik xizmatlar bo'yicha pedagog, loyihalar koordinatorlari); o'rta maxsus ta'limi tizimida o'qituvchi-logoped, korreksion-sog'lomlashtiruvchi pedagogik jarayonni tashkil etish va olib borish

bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari, texnologiyalari;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalari qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

ta'lim va tarbiya jarayoni; o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;

pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmlari;

ta'limning nazariy masalalari;

o'qitish metodikasi;

loyihalashtirish, variativlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya hamda tarbiyaviy-korreksion mashg'ulotlarni loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, sog'lomlashtiruvchi, ijodiy rivojlantiruvchi pedagogik jarayonni tashkil etish va olib borish jarayoni;

ta'lim mazmuni (o'quv fanlaridan davlat ta'lim standartlari, milliy dastur, darslik, metodik va elektron resurslar...)ni modernizatsiyalashtirish, differensiallashtirish jarayoni, ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni;

inklyuziv, korreksion ta'limni boshqarish va amaliyotini tashkil etish;

mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy- ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

1.2.3. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- pedagogik;

- tashkiliy-boshqaruv;

- ilmiy-tadqiqot;

- ma'naviy-ma'rifiy;

- kompleks (psixologik, metodik, rivojlantiruvchi,

sog'lomlashtiruvchi).

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatda:

umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida fanlarni o'qitishda ilg'or innovatsion texnologik jarayonlarni modellashtirish vatatbiq etish;

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar bilan olib boriladigan frontal, yakka mashg'ulotlarni tashkil etish, mazmunini ishlab chiqish, zaruriy vositalar (didaktik, tarqatmali, elektron)ni tayyorlash;

nutq nuqsonini diagnostika qilish, aniqlash va korreksiyalashning anaviy va innovatsion yondashuvlarini o'rganish, tanlash, ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

axborot vositalaridan samarali foydalanish orqali kasbiy faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish;

xorijiy tajribalarni muntazam o'rganish orqali o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha turida bolalarni maktabga kompleks tayyorlashning zamonaviy usullarini topish, yaratish va qo'llash;

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida diagnostik, korreksion, rivojlantiruvchi ishlarni olib borishning samarali yo'llarini topish va qo'llash;

dars va mashg'ulotlar o'tish (frontal (yalpi), guruhli va yakka mashg'ulot) xonalarini zamonaviy jixozlash talablarini bilgan holda ish yuritish;

sog'liqni saqlash tizimida logopedik xizmatni tashkil etish;

mustaqil mutoalaa va ilmiy ijodiy izlanish ishlari natijasida boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

bolalar va kattalarning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali reabilitatsiya qilish ishlarini muntazam takomillashtirish;

hamkorlikda ishlashning zamonaviy mexanizmlarini o'rganish va qo'llash hamda muntazam takomillashtirishda ishtirok etish;

ta'lim tizimida soha metodisti va unga tenglashtirilgan lavozimlarning ish mazmunini o'rganish va rivojlantirish hamda qo'llash;

pedagogika ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy tadqiqot laboratoriyalarida mutaxassislik faoliyatini yuritish;

ishlab chiqarish sohalarida o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, marketing xizmatini yuritish;

soha bo'yicha keng jamoatchilikka axborotlarni yetkazish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik, metodik, psixologik ishlarning sifatini nazorat qilish, monitoring qilish;

sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni tarkib toptirish choralari ko'rish va boshqarish;

inklyuziv ta'lim sharoitida oilalar bilan hamkorlikning sifatini nazorat qilish, oilalarga ko'maklashish, maslahatlar berish, pedagogik yo'naltirish ishlarini nazorat qilish hamda boshqarish;

inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining roli va vazifalarini bilgan holda o'zaro sinergetik ish rejalar tuzish va uning borishini kuzatish, boshqarish;

ta'lim klasteri sharoitida o'zaro manfaatdor maqsad va vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda pedagogik jarayonlarni monitoring qilish va sifatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish;

tashkilot va muassasada pedagogik va korreksion-rivojlantiruvchi jarayonlarni atrof-muhit muhofazasi va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini nazorat qilish;

jamoada sog'lom raqobatli, ishchi muhitni yaratish va barqarorlashtirish;

jamoadagi ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish choralarini ko'rish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda boshqarish;

boshqaruv usullarining turlaridan vaziyatga qarab foydalana olish, jamoada fikrlar har xil bo'lgan sharoitda adolatli, to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

jamoada xodimlar faoliyatini rag'batlantirish va stimullashtirish yo'llarini topish va qo'llash;

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini nazorat qilish va manzilli hamda maqsadli choralarni ko'rish;

muassasa yoki tashkilot imijini ko'tarish va ushlab turish choralarini hamkorlikda ishlab chiqish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

sohaga oid milliy va xorijiy ilg'or tendensiyalarni o'rganish; internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni

maqsadga yo'nalgan holda qidirish, topish, saralash, qayta ishlash, qo'llash;

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy to'plamlar, manbalarni o'rganish, tahlil qilish, xulosalari asosida o'z faoliyatini takomillashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, darsliklar va dasturlarni ekspertiza qilishda qatnashish, takliflarni berish;

ma'lumotlarni jamlash asosida maqolalar, tezislarni chop etish; o'quvchilarning o'zlashtirishlarini, nutqiy va aqliy rivojlanishini

monitoring qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni jamlash, yutuqlarini ommalashtirish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish va turli tanlovlarga taqdim etish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy tarbiyani singdirish;

o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini, reproduktiv malakalarni shakllantirish yo'llarini topish va qo'llash;

o'quvchilarda kitobxonlik malakalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini topish va qo'llash;

o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish metod va texnologiyalarini egallash va qo'llash;

oilaviy hayotga tayyorlashning maqbul yo'llarini bilish va qo'llash;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya

texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olibborish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbatlar, profilaktik ishlar olib borish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Kompleks (psixologik, metodik, rivojlantiruvchi-kommunikativ) faoliyatda:

Diagnostic-maslahat:

turli yosh bosqichlari va bolalar rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni psixologik-pedagogik va logopedik tashxis qilishning standartlashgan metodlarini, bolalarni tekshirishni to'g'ri tashkil qilishni va tekshirishdan olingan natijalarni yakka korreksion- rivojlantiruvchi dastur tuzish hamda bolani tegishli ta'lim muassasasiga yo'naltirish maqsadida taxlil qilish;

korreksion-rivojlantiruvchi ta'sirni samaradorgini baholash maqsadida dinamik kuzatuvni amalga oshirish;

tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyatini tashkil etishda ishtirok etish;

ota-onalarga bolada mavjud nuqsonlarning xususiyatlari va uning rivojlanish istiqboli haqidagi ma'lumotlar berish;

Metodik:

inklyuziv ta'lim sharoitida darsning turli tiplaridan samarali foydalanish;

darsda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish;

korreksion-pedagogik faoliyat jarayonni samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqish, qo'llash;

boshlang'ich sinflarda dars o'tishning interfaol usullarini qo'llash va mualliflikda usullar ishlab chiqish;

metod birlashmalarda ishtirok etish;

dars tahlilining zamonaviy shakllarini o'rganish va qo'llash; binar darslar tashkil etish;

o'qituvchi va maxsus pedagog hamkorligini metodik yo'naltirish; darsni to'g'ri rejalashtirish;

mashg'ulotlar uchun yakka rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish; dars va mashg'ulotlarni rasmiylashtirish;

nutq xaritalarini yuritish;

psixologik-pedagogik tashxis qilish asosida yakka korreksion-rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqish;

Rivojlantiruvchi-kommunikativ faoliyatda:

psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslar vaularning oilasiga empatik va insonparvar munosabatda bo'lishi;

tashviqot ishlarini olib borishni, o'quv-metodik ishlar bo'yicha munoraza yuritishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilishni bilishi;

horijiy tillardan birida kasbiy faoliyatida oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga

ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

hamkasablari va boshqa mutaxassislar bilan muloqot qilishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani o'qitish, tarbiyalash va reabilitatsiya qilish bo'yicha jamoaning faol a'zosi sifatidagi surdopedagog uchun zarur bo'lgan malakalarni egallagan bo'lishi kerak.

2. 60110400 - Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yichabakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy tarbiya mezonlariga asoslangan faol hayotiy nuqtainazarga ega bo'lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv vako'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

inklyuziv va korreksion ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

inklyuziv va korreksion ta'limning umumiy va xususiy tamoyillarini hisobga olish;

inklyuziv va korreksion ta'lim sharoitida o'quvchilarning o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitishning varativ shakllarini tayyorlash, qo'llash;

alternativ yondashuvlar va resurslarni jamlash, amaliyotda manzilli qo'llash;

inklyuziv va korreksion ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlari samaradorligini baholash mezonlarini bilish va ular asosida dars hamda mashg'ulotlar xaritalarini loyihalashtirish;

inklyuziv va korreksion ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

inklyuziv va korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

o'quvchilarda mavjud muammolarni bartaraf etishning maqbul usullarini tanlash va qo'llash;

inklyuziv va korreksion ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning o'quvchilar imkoniyatlariga mosligini ta'minlash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, innovatsion o'quv muhitini yaratgan holda dars mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida

o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

maxsus pedagogika tarixi, ta'limoti, yirik namoyandalari, fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish;

oligofrenopedagogika, surdopedagogika, logopediya, tiflopedagogika tarixi, nazariyasiga oid bilimlarni egallash, sohaning dolzarb masalalarini ilg'ay olish va o'quvchilarga yetkaza olish;

klassik va innovatsion metodlar va ta'lim texnologiyalarini ixtisoslikka mos fanlarni o'qitishga adaptivlashtirgan holda qo'llay olishi, ilmiy, ommabop axborotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olish;

o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, ilmiy-metodik kontekstlarda inklyuziv va korreksion ta'lim o'rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha konferensiya, seminarlarda ma'ruzalar o'qish, differensial ta'limni yo'lga qo'ya olishi, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yurita olish.

Xususi kasbiy kompetensiyalar:

inklyuziv va korreksion ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlashning zamonaviy usullarini bilish va qo'llash;

rivojlanishida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasa va tashkilotlarda olib boriluvchi o'quv- tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda variativ tarzda qo'llay olishi;

rivojlanishida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar bilan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

umumta'lim maktablari inklyuziv sinflarida, uydagi yakka tartibdagi ta'lim sharoitida hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim

fanlari (musiqqa va jismoniy tarbiyadan tashqari)ni o'qitishning umumiy va maxsus metodikalarini egallagan bo'lishi;

rivojlanishida og'ir va ko'p nuqsonga ega bo'lgan bolalar uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishi;

maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda o'yin va interfaol texnologiyalarni qo'llashni bilishi;

ijtimoiy himoya va sog'likni saqlash tizimi tasarrufidagi muassasalarda (ilk yoshdagi bolalar uylari va "Muruvvat" uylari, "Mehribonlik uylari") korreksion-rivojlantiruvchi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

inklyuziv sinflarda ta'limni individuallashtirish usul va vositalarini qo'llash;

rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida himoyali pedagogik kun tartibini tashkil etishni, korreksion-

pedagogik faoliyatni va boshqa ishlarni bolalarning psixik va jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olib, sog'lig'ini mustahkamlashga qaratgan holda tashkil etishni bilishi;

murakkab pedagogik vaziyatlar yuzaga kelganda ularni hal etish bo'yicha ijodiy potensialga ega bo'lishi, korreksion-pedagogik jarayonlarni, ta'limning mazmuni va metodlarini bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtira olishi;

2.3. Kasbiy kvalifikatsiyalar:

Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari (maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha turida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, "Muruvvat uylari", Mehribonlik uylari)da o'qituvchi-logoped, ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida o'qituvchi-logoped, inklyuziv ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf (musiqqa, jismoniy tarbiya, tasviriyy faoliyatdan tashqari) o'qituvchisi, inklyuziv ta'lim tashkil etilgan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida resurs-tyuter o'qituvchisi, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash, tashxis markazi bo'linmalarida maxsus pedagog, sog'liqni saqlash tizimiga qarashli markazlar va punktlarda logoped, reabilitolog, sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida faoliyat ko'rsatish, sog'lomlashtiruvchi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tarbiyachi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01


Tayanch so'zlar:


Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti



Rektor  **G.Muxamedov**

202 _yil «_____» _____

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi huzuridagi Oliy
ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish
markazi**



Direktor  **M. Esonov**

202 _yil «_____» _____

M.O'.

**O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
Respublika tashxis markazi**



Direktor  **L. Gaynutdinova**

202 _yil «_____» _____

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi**



Direktor  **Sh.Sattorov**

202 _yil «_____» _____

M.O'.